

MEDIAMATN TAHLILIDA LINGVOPRAGMATIK
YONDASHUVLARBarno Buranova, 

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Hojarbibi Atabayeva, 

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada, asosan, matbuot tilidagi lisoniy va uslubiy me’yor buzilish holatlari, xususan, funksional jihatdan samaradorlikni pasaytiruvchi klishelardan ortiqcha foydalanish masalalari ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot gazeta va jurnal matnlari asosida olib borilib, unda nutqiy qoliplarning tipologiyasi, ularning stilistik, pragmatik va semantik xususiyatlari, shuningdek, ularni cheklash usullari tahlil qilinadi. Natijada matbuot tilining ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda adabiy til me’yorlariga muvofiqligini ta’minlash bo’yicha aniq tavsiyalar shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: Klishe, adabiy til, stilistik me’yor, matbuot tili, uslubiy xatolik, sinonimiya, dominant so‘z, pragmatika, semantika

1. Kirish

Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, bosma nashrlar – gazeta va jurnallar – til madaniyatini shakllantirish va adabiy-lisoniy me’yorlarni ommalashtirishda muhim ijtimoiy vosita hisoblanadi. Nashr tili nafaqat axborot yetkazish, balki lingvistik me’yorlarni tatbiq qilish orqali jamiyat tafakkurida til madaniyatini shakllantirishga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu bois, matbuot tilining uslubiy jihatdan ravonligi, lisoniy aniqligi va adabiy til me’yorlariga sodiqligi hozirgi zamonda dolzarb tadqiqot yo’nalishlaridan biri sifatida ko’rilmogda. Ayniqsa, klishe, ya’ni qoliplashgan iboralar va gaplarning haddan ziyod bo’rttirib qo’llanilishi matnda axborot berish va asosiy mohiyatni o’quvchiga yetkazishda noaniqlikni yuzaga keltiradi. Matn uslub jihatdan g’alizlashadi, o’quvchining qiziqishi susayadi va tilning boy ifoda imkoniyatlaridan to’liq foydalanilmaslik holati kuzatiladi. Mazkur maqolada ayni shu muammolar misollar asosida tahlil qilinadi. Ma’lumki, klishe, odatda, muayyan vaziyatda tez-tez qo’llaniladigan standart iboralar bo’lib, ular matnning usluban ravonligini cheklaydi. Masalan, “xalqimiz azaldan mehnatkash”, “yurt ravnaqi yo’lida” kabi iboralar aksariyat mediamatnlarda noo’rin qo’llaniladi. Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi matbuot tilida uchraydigan klishearning turlari, ularning kelib chiqish sabablari, matn mazmuniga ta’siri va ularni kamaytirish yo’llarini ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil qilishdir. Maqolada gazeta va jurnal materiallari asosida misollar keltirilib, klishearning nutqdagi funksional roli va ularning stilistik xususiyatlari o’rganiladi. Shuningdek, matbuot tilini boyitish, adabiy til me’yorlariga moslashtirish bo’yicha tavsiyalar beriladi.

DOI:

<https://doi.org/10.62499/>

ijmcc.vi9.131

Iqtibos:

Buranova, Barno;
Atabayeva, Hojarbibi. 2025.
MEDIAMATN TAHLILIDA
LINGVOPRAGMATIK
YONDASHUVLAR
Markaziy Osiyoda media va
kommunikatsiyalar xalqaro
ilmiy jurnali. 9: 15-27.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Maqoladavtifsifiy-lisoniytahlilusulibilanbirqatordalingvostilistik, qiyosiy va kontent-tahlili metodlaridan foydalanildi. Empirik manba sifatida “Sharq yulduzi”, “Jahon adabiyoti”, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, “Hurriyat”, “Ma‘rifat” kabi gazetalar hamda “Qalampir.uz” va “Kun.uz” kabi onlayn axborot platformalarida chop etilgan maqolalar tanlab olindi. Tahlilda matndagi pragmatik hamda semantik muammolar, klishelarning kontekstual qo‘llanishi, ularning matn uslubiyatiga ta’siri va funksional yuki baholandi.

3. Adabiyotlar sharhi

Tadqiqot ishining nazariy va metodologik poydevori tilshunoslik, pragmalingvistika va media tilining tahlili sohasida ko‘plab olim va mutaxassislar izlanishlar olib brogan. Xususan, A.Abduaidov axborot yetkazish zarurati andozaviylikni keltirib chiqargan bo‘lsa, unga baho berish ehtiyoji ta’sirchanlikni taqozo etishini (2005) va bu ta’sirchanlikni ifodalashda badiiy til elementlaridan foydalanish ko‘payib borayotganini ta’kidlar ekan (2014), — buni tasviriy vositalar, maqol va iboralarni ishlatish ocherk, lavha va maqolalarda diologlardan keng foydalanishda ko‘rish mumkinligini aytadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari tilidagi uslubiy nosog‘lomliklar, madaniyatsizlik va lisoniy xatolar chuqur tahlilga muhtoj ekanligini (2004) e’tirof etadi.

Ommaviy axborot vositalarida muayyan davrga oid yagona tasvir emas, balki turli xil va ko‘p sonli manzaralarni tahlil qilish zarur (Hall, 1997). Bu jarayonda ayrim umumiy jihatlar (masalan, tezkorlik, harakatchanlik, dolzarblik) ko‘zga tashlanadi (Van Dalen & Albæk, 2023). Biroq mazmun jihatidan ushbu tasvirlar o‘rtasida katta tafovutlar, hatto o‘zaro zid g‘oyalar uchrashi mumkin. Shu sababli, pragmatik yondashuv doirasida nutq muallifi va u kimga murojaat qilayotgani – ya’ni yo‘llovchi va qabul qiluvchini – chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi (Teshaboyeva, 2020). Ommaviy axborot vositalarining tili ijtimoiy va lingvistik jihatdan media tilining shakllanishi, yangiliklar tuzilishi va ularning jamiyatdagi rolini o‘rganadi (Bell, 1991). Tadqiqotchi olim Azim Hojiyevning keltirishicha (2002), pragmalingvistik atamalar tilshunoslikning nutq egasi va nutq iste’molchisi o‘rtasidagi munosabatlarni, kontekstdagi til birliklarining ma’nosini, so‘zlovchining maqsadini va gapning ijtimoiy ta’sirini o‘rganadigan sohadir. Shu nuqtai nazardan grammatika asosan ijtimoiy kelishuvlarga asoslangan bo‘lsa, pragmatika insonlarning kommunikativ maqsadlariga ko‘proq bog‘liqdir (Leech, 1983). Til birliklarining pragmatik tahlili ularning madaniy kontekstda qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi (Safarov, 2008). Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, OAV tilining rivojlanish xususiyatlari uni kommunikativ pragmatika va madaniyat nuqtayi nazaridan o‘rganish zaruratini tobora kuchaytiradi (Oparina, 2021).

Mutaxassislarning fikricha, OAVning barcha sohasida ko'chib yuruvchi qolipli, badiiy-publitsistik uslubga xos bo'lgan so'zlar, gap qoliplari, matnlar uchraydi (Lijun Guo, 2014). Bunday jumladan xoli mediamatnlar ham bor, albatta. Betakrorlik, jimjimadorlikni ta'minlash maqsadida har bitta so'zga e'tibor qaratish, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlardan unumli foydalanish juda muhim (Cuddy et al., 2009). Lekin publitsist, jurnalistlar, tadqiqotchilar uchun maqolani takror va ko'chib yuruvchi qoliplardan himoya qilib yozish ancha murakkab. Mazkur muammoni ijobiy hal qilish, so'zni o'z o'rnida, tejamkorlik bilan ishlatish yozuvchi, muxbir, jurnalistlarning mahoratini ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Matbuot materiallarida uchrovchi takror va ko'chib yuruvchi so'zlar, ya'ni klishelar nafaqat matnning betakror uslubiga putur yetkazadi, balki yetkazilayotgan axborot yoki ma'lumotga bo'lgan qiziqishni susaytiradi (Amis, 2018).

Klishe (fr. cliché), shuningdek, nutq shtampi (adabiy shtamp, kino shtampi va boshqalar) — san'atda an'anaviy ravishda o'rnatilgan qotib qolgan shakl (motiv, mavzu).

Klishe – illyustratsiya (rasm, reproduksiya, ba'zan matn) lardan matbaa usulida nusxa ko'chirish uchun mo'ljallangan bosma shakldir.

Klishelar haddan tashqari ko'p qo'llaniladigan gaplar, fikrning tayyor qoliplari (Khakieva et al., 2023) hisoblanadi. Mazkur istiloh fanga XIX asrning o'rtalarida kirib kelgan bo'lib, fransuz tilidagi cliché — cliché “chop etish” so'zidan olingan. Qo'llash nuqtayi nazaridan klishe bayonning kerakli mazmunini aks ettirishning eng oson, qisqa va o'ylanmagan yo'lini ta'minlaydi; idrok etish nuqtayi nazaridan bu fikrni ifodalashning eng kam o'ziga xos va jamiyatni zeriktiradigan usulini suiiste'mol qilishdir.

Klishe so'zlar mediamatn tarkibida turli shakllarda: so'z yoki so'z birikmasi, gap tarzida uchraydi. Nutqiy klishe – so'z qo'llashning standart namunalari, so'z birikmalari va sintaktik tuzilmalarning namunaviy sxemalari, shuningdek, muayyan vaziyatlarda nutqiy xatti-harakatlarning umumiy modellaridir. Klishe san'at asarlarining an'anaviy syujetlarida, ilmiy adabiyotlarda, so'zlashuv nutqida qo'llaniladi. Ammo biz maqola tarkibida takror-takror bir so'zdan foydalansak bir xil qolipdagi birikmalar, gaplar qo'llasak bu maqolaning darajasini nisbatan pastga tushiradi va aksincha, qanchalik sinonim so'zlardan, birikmalardan foydalansak bu e'tiborga loyiq maqola bo'ladi. Bunday maqolalar mushtariylarni o'ziga jalb etadi (Basovskaya, 2020). Demak, klishelar – stilistik inersiyani ko'rinishidir. Stilistik inersiya nima? Stilistik inersiya – bu adabiy tilda biror til vositasi yoki uslubiy shaklning o'zining asl kuchini yo'qotgan bo'lsa ham, odat tusiga kirib qolganligi sababli qo'llanilishi holatidir (Vinogradov, 1963). Bu holatda ifoda yangilik yaratmaydi,

balki avvalgi ishlatilgan uslubni inersiya (ya'ni harakatning davomiyligi) tarzida takrorlaydi. Adabiy yoki publitsistik nutqdagi tayyor qolipni takrorlaydi. Bu holat ko'pincha o'quvchi yoki tinglovchida zerikish, sun'iylik hissini uyg'otadi. Bulardan tashqari matn mazmunini yoritishda pragmatik va semantik tomonlariga ham katta e'tibor qaratish lozim. Pragmatika nima, degan savolga qisqacha shunday javob berish mumkin: pragmatika – bu tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, u til birliklarining (so'z, gap, matn) qanday sharoitda, kim tomonidan, kimga, qanday maqsadda va qanday ijtimoiy kontekstda ishlatilishini o'rganadi (Ogba & et.all., 2020). Oddiyroq qilib aytganda, tilning amalda va odamlarning o'zaro muloqotida bo'lgan paytdagi holati hamda uning ta'sirini o'rganadigan fandır. Matn pragmatikasining o'rganilish tarixi tilshunoslikda nisbatan yangi soha bo'lsa ham, biroq uning kelib chiqish tarixi qadimgi antik davrga borib taqaladi. Ya'ni, pragmatikaning ayrim g'oyalari qadimgi yunon faylasuflari, ayniqsa, Aristotel, Sokrat va Platon asarlarida uchraydi. Ular til va mantiq, nutq va ta'sir o'rtasidagi bog'liqlikni muhokama qilgan. Aristotel nutqning maqsadi – tinglovchiga ta'sir o'tkazish ekanligini ta'kidlagan.

Nutqdagi leksik ma'noviy hodisalarni tahlil qilishda, o'rganishda semantikaning ham o'rni nihoyatda katta. Semantika – tilshunoslikning til birliklari mazmuni va ushbu birliklardan tuzilgan nutqiy hosilalarni o'rganadigan bo'limdir. Semantika alohida fan sifatida shakllangan, asosan, leksemaning ma'no taraqqiyoti, kengayishi, torayishi, ixtisoslashishi, vizual va okkazional ma'no, bosh va hosila ma'no, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi semantik hodisalar doirasidagi masalalar tadqiqi bilan shug'ullanuvchi lingvistik soha sanaladi. Semantika, yunoncha- “sema” so'zidan olingan bo'lib, til birliklarining mazmun qiymatini, ma'nosini tahlil qiladi. (Hojiyev, 2002).

“Semantika” atamasining fanga kiritilishi va soha taraqqiyoti XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri kelishi haqidagi ma'lumotlar nisbiydir. Lingvistik birliklar ma'nosi Qadimgi Xitoyda eramizdan avvalgi V-III asrlarda, Qadimgi Gretsiyada va o'rta asr Yevropa an'analari, so'ngra esa Uyg'onish davri grammatikachilari va faylasuflari tomonidan tadqiq qilgan (Jerebilo, 2006). O'rta Osiyo qomusiy olimlari semantika masalalariga alohida e'tibor qaratishgan. Keyinchalik, semantikaning nazariy asoslari Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug'atayn” risolasida ilmiy asosda yoritilgan (Navoiy, 2013).

Mazkur fikrlardan ma'lum bo'ladiki, pragmatika ham semantika ham juda tarixiy jarayonlardan rivojlanib kelgan. Lekin vaqtlar o'tib ular fanning bir bo'lagiga aylanishni taqazo qilgan va olimlar hali hamon matnning ma'nosida ularni farqlash muhimligini o'rganib kelishmoqda.

Tadqiqotning mulohazalar qismida mazkur nazariy qarashlar mediamatn namunasi asosida tahlil qilinib ko'rib chiqilgan va olingan xulosalar natijasida yana bir qancha ma'lumotlar taqdim etilgan.

4. Mulohaza va natijalar

Milliy matbuot tahlili shuni ko'rsatadiki, jurnalistlar me'yordan ortiq, ba'zi nuqtalarda mutlaq noo'rin, biroq avtomatik tarzda qo'llaydigan klishe-so'zlar lug'ati shakllangan. Xususan, "islohot", "tadbir", "modernizatsiya", "rekonstruksiya" singarilarni kiritish mumkin. Fikrimiz isboti sifatida quyida "Xalq so'zi" gazetasining 30-mart onlayn nashrida e'lon qilingan (2025) rasmiy xabaridan parcha keltiramiz:

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif 30-mart kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Ramazon hayiti - Iyd al-Fitr bayrami munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutladilar. Do'st O'zbekiston va Pokiston xalqlariga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etildi.

Joriy yil fevral oyida Pokiston Bosh vazirining O'zbekistonga tarixiy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni "yo'l xaritasi"ga muvofiq amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Vazirliklar, idoralar va tarmoqlar darajasidagi muloqotlar faollashgani va almashinuvlar samarali tus olgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi".

Ma'lumki, Prezident xabarnomalari, asosan, davlat rahbarlari haqidagi ma'lumotlarni yoritganligi bois yuqori darajadagi rasmiy til va ifodani talab qiladi. Bunda esa so'zlar aniq, ravshan va sodda bo'lishi kerakligini taqazo qiladi. Albatta, omma qabul qilishi uchun tushunarli til ishlatilishi bilan rasmiylikni saqlashga, ortiqcha takrorlardan holi matn tuzishga erishish mumkin. Lekin biz yuqoridagi matnda buning aksini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni xabarnomada "butun musulmon ummati uchun muqaddas" jumlasining ortiqcha ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur qolip birikma matnni uslub jihatidan g'aliz qilgan, natijada rasmiy uslub qoidalari buzilishiga sabab bo'lgan. Bu yerda jumlaning klishe tarzda berilgan desak, xato bo'lmaydi. Chunki bunda birikma ko'proq badiiy matnda keltiriladigan tasviriy ifodani eslatadi. Yana shu gapning oxirida keltirilgan "samimiy qutladi" so'z birikmasini rasmiy uslubga mos tarzda berish yoki "samimiy" so'zini keltirmasdan, "tabrikladi" shaklida qisqa va lo'nda berish mumkin. Chunki "samimiy qutladilar" birikmasi matnni emotsional jihatdan kuchaytiradi va usluban boyitadi. Vaholanki, rasmiy uslubda bo'yoqdorlik emas, balki aniq va ravon fikr zarur (Nuriddinova & Shodiyeva 2023). Matndagi

keyingi gap tarkibidagi birikmalarga e'tibor qaratsak, bu yerda "tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etildi", birikmasi ham badiiy uslubga xos. Mazkur gapda "izhor etildi" birligi o'rnida rasmiy uslub qoidalariga muvofiq tarzda "tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladi" qolip birikmasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'kidlash jozki, har qanday uslubda yozilgan jumlaning yoki matnning pragmatik va semantik tomonlari doimo muhim ahamiyat tutadi. Matn tarkibidagi qolipli birikmalarni tahlil qilsak, pragmatik jihatdan noo'rin qo'llanilgan til birliklarini takroran ko'rishimiz mumkin, misol uchun "tarixiy tashrif" so'z birikmasi bu yerda mutlaqo ortiqcha. Chunki har qanday rasmiy davlat tashriflari, albatta, tarixga muhrlanadi, buni xabarda yoritish shart emas. Agar yoritiladigan bo'lsa, oddiy xalq buni "tarixda birinchi bor bo'layotgan tashrif" sifatida qabul qilishi mumkin. Shu bilan birga, matn tarkibida berilgan "yo'l xaritasi"ga muvofiq" iborasi barchaga tushunarli bo'lmasligi mumkin. Bu o'rinda "tasdiqlangan reja asosida bosqichma-bosqich ish olib borish" jumlasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Biz rasmiy xabarnomalar matnini yozganimizda jarayonning aniqligini qat'iy ifodalashimiz, hissiyotlarni bermasligimiz muhim. Bunday talablarni teran bilish va uslubni to'g'ri tanlash bizni mukammal matn yaratishimizni ta'minlaydi. Afsuski, yuqoridagi kabi rasmiy xabarlar, maqolalar boshqa gazetalarda ham mavjud. Ayniqsa, bu qolip gaplardan foydalanishda yorqin ifodalanmoqda. Vaholanki, yuqoridagi so'z va so'z birikmalarining o'nlab sinonimik variantlari mavjud. Qolip gaplardan foydalanish milliy matbuotda bir xil jumalarning takror va takror kelishiga olib keladi. Quyida tahliliy misollar orqali fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz:

"Yangi O'zbekiston" gazetasining 2025-yil 18-fevral sonida chop etilgan "O'zbekiston – Kuvayt munosabatlarini keng qamrovli sheriklik darajasiga olib chiqqan samarali uchrashuvlar" sarlavhali maqolasidagi: "Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar" (2025) jumlasini bilan ushbu gazetaning 2025-yil 10-may sonida chop etilgan "O'zbekiston xalqi ulkan jasorat va yuksak insonparvarlik namunasini ko'rsatib, buyuk g'alabaga munosib hissa qo'shgan" maqolasidagi: "O'zbekiston va Rossiya yetakchilari xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar" (2025) jumlasini hamda shu gazetaning 2023-yil 22-fevral sonida nashrdan chiqqan "O'zbekiston – Misr hamkorligida yangi davr boshlanmoqda" sarlavhali: "Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar" maqolasidagi ayrim jumlar deyarli bir xil qolipda yozilgan. Ya'ni, bu maqolalarda "xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar" (2023) jumlasini bir xil

qolipda qo'llanilgan. Yuqoridagi har uchala jumlaning qurilishi va leksik tarkibi bir xil. Bu holat misol tariqasida tanlab olingan gazetadagina emas, deyarli barcha matbuot nashrlarida eng ko'p ko'zga tashlanadigan kamchiliklardan sanaladi.

Xuddi shunday misolni "Vatanparvar" gazetasining bir nechta maqolalarida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, gazetaning 2025-yil 23-may sonida nashrdan chiqqan "To'rt urinishda to'rt yuqori natija" (Ro'ziboyev, 2025) sarlavhali maqolaning o'zida ikki o'rinda "amalda isbotladi" iborasini kuzatsak, shu gazetaning 2025-yil 9-may sonida berilgan "Jadidchilik" (Ahmedov va Safaraliyev, 2025), "Yoshlar amaliy o'q otish mashg'ulotlarida" (2025) maqolalarida ushbu qolib ifodadan foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Milliy matbuotimizda bu kabi klishe'lar matbuot uslubiga qarab, o'zgarib turadi. Maslan, "Yangi O'zbekiston" gazetasida "ahamiyatga molik masalalar yuzasidan" qolib ifodasidan ko'p foydalanilsa, "Vatanparvar" gazetasida "amalda isbotladi", "amalda namoyon qildi" singari ifodalar bot-bot ko'zga tashlanishini ko'rish mumkin.

Sinonimlardan foydalanmaslik u yoki bu so'zning ko'p marotaba takrorlanishi, pirovardida maqola ichki leksikonining haminqadar bo'lishiga olib keladi. Masalan, "Jadid" gazetasida chop etilgan "Komilalik tarifi" sarlavhali maqolada (G'offorova, 2025) "ayol" so'zi 20 marotaba takrorlangan.

Bir xil klishe'lardan foydalanish, ayniqsa, rasmiy xabarlarda ko'p uchraydi, har doim kerakli, qiyin vaziyatdan chiqaruvchi reja bo'lib qolgan desak ham bo'laveradi. Masalan, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida (2023-yil 24- fevral №7) "Millatni ziyoli onalar tarbiyalaydi" nomli maqolada, "Hukumat idoralari tadbirkorlarning muqobil energetika loyihalarini amalga oshirish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratadi", yoki "Jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda Prezident maktabgacha va maktab ta'limi masalalariga ham alohida to'xtaldi", kabi kichik ko'chib yuruvchi jumlar ko'plab keltirilgan. Bunday qolipli gaplar hamma uchun qulay bo'lib qolgan. "Tashrifdavomida", "ma'lumki", "ta'minlash" kabi so'zlar keragidan ortiq ishlatilgan. Bu so'zlarning o'rniga sinonimlarini ishlatish kerak, aslida.

Bunday holat nafaqat rasmiy uslubdagi maqolalar, balki ilmiy, badiiy uslublarda ham juda serob. Yana "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida Almaz Ulvining "She'r-ko'ngil tug'yoni" (2023) nomli maqolasida bejirim so'zlar qo'llangan, ammo bu so'zlar barcha badiiy uslubda keng ishlatiladi, masalan "Yurakni o'rtaydigan bu misralar onani qo'msashmi yoki ona uchun nolami?!". Bu gapda "yurakni o'rtaydigan misralar" qolipi doimo she'r misralarini tarflashda ishlatiladi. U qanday ma'nodagi she'r bo'lsa ham biz uni "yurakni o'rtaydi" deb yozishga o'rganib

qolganmiz.

Adabiyotshunoslik bilan bog‘liq maqolalarning ko‘pchiligid yuqorida ko‘rib chiqilgan qolip ifodalarga o‘xshash klisheklardan ko‘p foydalaniladi. “Sharq yulduzi” jurnali 2023-yil 11-sonida Yo‘ldosh Solijonovning “Isajon Sultonning badiiy olami” maqolasi tahlilga tortilganida deyarli barcha yozuvchi, adabiyotshunoslar qo‘llaydigan qolip ifodalardan foydalanilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, “Isajon Sulton asarlari mutolaasiga kirishar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda darhol o‘zimizga g‘oyatda tanish rangin manzaralar, odamlar paydo bo‘ladi. Qulog‘imizga ajib ohanglar, daraxtlarning shovullashi, qushlarning chug‘ur-chug‘uri, maysalarning shitirlashi, shamolning guvullashi, yomg‘ir yog‘ishi, itlarning vovullashi-yu qo‘y-qo‘zilar ma‘rashi eshitilib turadi” (2023). Ushbu parchada adabiyotshunoslikka oid maqolalarda ko‘p uchraydigan “asarlari mutolaasiga kirishar ekanmiz”, “ko‘z o‘ngimizda”, “rangin manzaralar”, “ajib ohanglar” singari bir qator qolib ifoda va klisheklardan foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, klisheklar matn semantikasida yuzakilik, emotsional sun‘iylikni yuzaga keltiradi, natijada stilistik g‘alizlik matn saviyasini tushiradi. Ta‘kidlash joizki, klisheklar ma‘lum ijtimoiy guruhlar orasida umumiy tushuncha, ya‘ni kontekst hosil qilishda yordam beradi, lekin ularni maqsadga muvofiq qo‘llash joiz. Aks holda quyidagi jadvalda berilgan lisoniy-uslubiy xatoliklar yuzaga keladi:

Klishe ibora	Stilistik inersiya sifatidagi holati	Matn semantikasiga ta‘siri
Yurakni o‘rtaydigan bu misralar onani qo‘msashmi yoki ona uchun nolami?	Oddiy hissiy holatni kuchaytirib berish	Emotsional ta‘sir yo‘qotadi, chunki ko‘p ishlatilgan
Barcha sohalarda izchil amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘zining yuksak samaralarini bermoqda.	Asosiy mohiyatdan chalg‘itadi	O‘quvchi uchun falsafiy emas, odatiy eshitiladi
Binobarin, izchil amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli barcha sohalarda yuqori samaradorlikka erishilyapdi.	Tayyor qolip birikma qo‘llanishi natijasida matnning asl mohiyati g‘alizlashgan	Fikriy izchillik yo‘q, asl mohiyat noaniq.

Hukumat idoralari tadbirkorlarning muqobil energetik loyihalarini amalga oshirish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratadi.	Klishe natijasida mavhum mohiyat yuzaga kelgan.	Subyektiv fikrlar ifodasida aniqlik kamayadi.
Isajon Sulton asarlari mutoalasiga kirishar ekanmiz, ko'z o'ngimizda darhol o'zimizga g'oyatda tanish rangin manzaralar, odamlar paydo bo'ladi	Matn mazmuniga yangilik qo'shmaydi	Natijada matn mazmuni umumiy bo'lib qoladi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy matbuot tilida klishelardan foydalanish holatlari yuqori bo'lib, bu holat tilning ifodaviy imkoniyatlarini cheklaydi, matnning stilistik boyligini kamaytiradi. Tahlil etilgan misollar asosida shuni aytish mumkinki, matbuot tilini zamonaviy adabiy til mezonlariga moslashtirish uchun jurnalistik ta'limda tahrir madaniyatini chuqur o'rgatish, amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish zarur. Xususan, imloviy, uslubiy va kontekstual jihatdan izchil ishlangan matnlar auditoriyaga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, so'z boyligini oshirish, sinonimlardan faol foydalanish va qolip ifodalardan voz kechish orqali matnlar ta'sirchanligi oshiriladi.

Bugungi kunda media sohasi vakillarining faqat bir tomonlama bilimga ega bo'lishi natijasida, ular aynan tildagi mana shunday klishe, pragmatik, semantik yondashuvlarning muhimligidan, ya'ni til birliklarini muayyan kontekstga bog'liq ravishda ishlatilishidan bexabarligi yoki bunga rioya qilmasligi natijasida matbuotda biz na'munalarda ko'rsatganimiz kabi qo'pol xatoliklar yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Vaholangki, bugungi kunda sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida mediamatnlar tahririda ham yangidan yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoda. "Sun'iy intellektdan foydalangan holda o'zbek tilidagi matnlarni tahrirlash texnologiya va inson ijodining o'zaro ta'sirini butunlay yangi qirralarda ochib berib, tarmoqlar bo'ylab son-sanoqsiz imkoniyatlarni taqdim etadi" (Nazarova, 2024). SI vositalari yordamida matn yozish yoki tahrirlash borasida qilinadigan ishlar ko'p bo'lishiga qaramasdan, matn tarkibidan qolip ifodalar va takror jummalarni topish, ularni sinonim muqobillariga almashtirish

imkoniyati mavjud. Natijada, matnda berilayotgan axborat mushtariylar va tinglovchilarni zeriktirmasdan, axboratlarni to'liq va ishonchli manbalar bilan asoslash imkonini beradi. Yuqorida sanab o'tilgan bir qator kamchiliklar, shu va shunga o'xshash holatlarning yagona yechimi – media sohasi vakillarining yanada chuqurroq ilm olishi, nafaqat media sohasidagi bilimlarni rivojlantirish, balki eng so'nggi lingvistik tadqiqotlarni ham yaxshi bilish, o'rganib borishni talab qiladi. Bu esa bugungi kunda pastlab borayotgan bosma nashrlar darajasining oshishiga, matbuot sohasida sifatlilikka, gazeta, jurnallar va umuman mediaga bo'lgan qiziqishlarning ortishiga sabab bo'ladi.

5. Xulosa

Maqolada keltirilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagicha xulosalarga ega bo'ldik:

Birinchidan, klishelarning ko'pligi matbuot tilida ifodaviylikni cheklaydi, matnlarni stilistik jihatdan g'alizlashtiradi va o'quvchi uchun zerikarli kontent beradi.

Ikkinchidan, lingvopragmatik va semantik xatolar ayniqsa, rasmiy xabar va maqolalarda ko'p kuzatilmoqda. Aynan “xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar” kabi tayyor qoliplar matn ifodasini susaytiradi.

Uchinchidan, stilistik inersiya hodisasi – tilda biror ifoda yoki ibora ma'nodagi yangilikni yo'qotgan holda odatga aylanishini bildiradi – bu holat OAV tilida keng tarqalgan.

To'rtinchidan, OAVda lingvistik tafakkur va uslubiy tafovutlar inobatga olinmasligi tufayli turli sohalar va matnlar uchun yagona qoliplar ishlatilmoqda.

Beshinchidan, tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, “tashrif davomida”, “amalda isbotladi”, “xalqimiz azaldan mehnatkash”, “tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq” kabi qolip ifodalar ortiqcha emotsional yoki mafkuraviy yuklama beradi.

Aniqlangan kamchilik va ilmiy xulosalarni umumlashtirgan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

Birinchidan, jurnalistlar va muharrirlar uchun uslubiy qo'llanma ishlab chiqish:

– matnlarda klishe va qolip ifodalardan qochish bo'yicha amaliy tavsiyalar;

– sinonimik ifodalardan foydalanish uchun lug'at yaratish;

– rasmiy, badiiy, ilmiy, tahliliy uslublar orasidagi farqlarni ko'rsatib beruvchi metodik vositalar ishlab chiqish.

Ikkinchidan, matnlarni SI yordamida avtomatik analiz qilish tizimlarini ishlab chiqish:

– matn ichida klishe iboralarni aniqlovchi sun'iy intellekt moduli;

– uslubiy takror va semantik noaniqliklarni ko'rsatib

beruvchi tahrir vositasi.

Uchinchidan, tahrir etilgan maqolalarda yangilik, betakrorlik va ifodaviylik darajasini o‘lchovchi mezonlarni ishlab chiqish:

- leksik xilma-xillik ko‘rsatkichi;
- klisesizlik indeksi;
- kontekstga muvofiqlik va adresatlilik bahosi.

To‘rtinchidan, media monitoring tizimini joriy qilish:

- rasmiy gazetalar va yangilik portallarini klishe ishlatilishi bo‘yicha monitoring qilish;
- tahririylarga stilistik tahlil hisobotlarini taqdim etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Abdusaidov, A. (2004). Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. Samarqand. URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/anjuman_toplami_2021yil_15-sentabr.pdf (Murojaat sanasi 25.05.2025).

Abdusaidov, A. (2005). Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Filol. fan. doktori. Avtoreferat. Toshkent. URL: <https://uzswlu.uz/backend/web/files/Israil%20Mukaddas.%20Avtoreferat.pdf> (Murojaat sanasi 25.05.2025).

Abdusaidov, A. (2014). Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. Samarqand. URL: <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/757053/5c0a0bca77dde.pdf> (Murojaat sanasi 25.05.2025).

G‘afforova, Z. (2024). Komilalik sari. Jadid, 45(45), 5. URL: <https://oyina.uz/storage/publications/November2024/BtmINw4rIcfMEacP4uVR.pdf> (Murojaat sanasi 25.05.2025).

Hojiyev, A. (2002). Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. URL: <https://library.uzfi.uz/ebooks/view?id=22205> (Murojaat sanasi 25.05.2025).

Nazarova, M. Y. (2024). Sun‘iy intellekt va muharrir tomonidan tahrirlangan matnlarning qiyosiy tahlili. O‘zbekistonda xorijiy tillar, (6), 107–120. DOI: <https://doi.org/10.36078/1735296072>

Nuriddinova, R., & Shodiyeva, A. (2023). Rasmiy va ilmiy uslublarning bog‘liqligi va farqli jihatlari. Models and Methods in Modern Science, 2(4), 151–154. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7794605>

Teshaboyev, D. (2020). Medialingvistika: Mediamatnning diskursiv paradigmasi. Medialingvistikaning dolzarb masalalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. URL: <https://conference.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/6/2023/05/medialingvistika-tuplam.pdf> (Murojaat sanasi 25.05.2025).

Виноградов, В. В. (1963). Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. Москва. Наука. URL: https://biblio.imli.ru/images/abook/teoriya/Poetika_i_stilistika_russkoj_literatury_1971.pdf (Дата обращения: 25.05.2025).

Опарина, Е. О. (2021). Медиатекст: семантика и прагматика. Социальные и гуманитарные науки, 1(6), 114–121. DOI: <https://doi.org/10.31249/ling/2021.01.08>

Amis, M. (2018). Martin Amis, Style Supremacist. *The New Yorker*. Retrieved May 25, 2025 from <https://www.newyorker.com/magazine/2018/02/05/martin-amis-style-supremacist>

Bell, A. (1991). *The Language of News Media*. Oxford. Blackwell. Retrieved May 25, 2025 from <https://www.cambridge.org/core/journals/language-in-society/article/abs/allan-bell-the-language-of-news-media/4C39AE5618D61FC7CE948EF4BC8294A6>

Hall, S. (1997). *Representation: Cultural Representations and Signifying Practices*. London. Sage Publications. Retrieved May 25, 2025 from https://fotografiaetoria.wordpress.com/wp-content/uploads/2015/05/the_work_of_representation_stuart_hall.pdf

Leech, G. N. (1983). *Principles of Pragmatics*. London. Longman. Retrieved May 25, 2025 from https://www.academia.edu/49346281/Notes_from_Geoffrey_Leechs_Principles_of_Pragmatics

Ogba, T. I., Awa, J. O., & Ogayi, M. C. (2020). Pragmatics: The Study of Its Historical Overview, Meanings, Scope and the Context in Language Use. *IOSR Journal of Humanities and Social Science*, 25(6, Series 3), 51–57. DOI: <https://doi.org/10.9790/0837-2506035157>

Van Dalen, A., & Albæk, E. (2023). Seeing the Whole Picture: Towards a Multi-perspective Approach to News Content Diversity. *Journalism Studies*. Retrieved May 25, 2025 from <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/1461670X.2023.2178248>

Mualliflar haqida:

BURANOVA Barno Menglibayevna — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida dotsenti, PhD., buranovabarno17180915@gmail.ru

ATABAYEVA Hojarbibi Yarash qizi — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti birinchi bosqich tayanch doktoranti, atabayevahajarbibi@gmail.com

LINGUOPRAGMATIC APPROACHES IN MEDIA TEXT ANALYSIS

Abstract: The article primarily analyzes instances of linguistic and stylistic norm violations in press language, particularly the issue of excessive use of clichés that reduce functional effectiveness, based on a scientific and theoretical approach. The research is conducted using newspaper and magazine texts, examining the typology of speech patterns, their stylistic, pragmatic, and semantic features, as well as methods to limit their use. As a result, specific recommendations are formulated to expand the expressive capabilities of press language and ensure its compliance with literary language norms.

Keywords: cliché, literary language, stylistic norm, press language, stylistic error, synonymy, dominant word, pragmatics, semantics



About the authors::

BURANOVA Barno Menglibayevna — Associate Professor of the “Uzbek Language and Literature” Department at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, PhD., buranovabarno17180915@gmail.ru

ATABAYEVA Hojarbibi Yarash qizi — First-year doctoral student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, atabayevahajarbibi@gmail.com

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В АНАЛИЗЕ МЕДИА-ТЕКСТА

Аннотация: В статье, прежде всего, анализируются случаи нарушения лингвистических и стилистических норм в языке прессы, в частности, проблема чрезмерного использования клише, снижающих функциональную эффективность, на основе научно-теоретического подхода. Исследование проводится с использованием газетных и журнальных текстов, изучая типологию речевых паттернов, их стилистические, прагматические и семантические особенности, а также методы ограничения их использования. В результате сформулированы конкретные рекомендации по расширению выразительных возможностей языка прессы и обеспечению его соответствия нормам литературного языка.

Ключевые слова: клише, литературный язык, стилистическая норма, язык прессы, стилистическая ошибка, синонимия, доминирующее слово, прагматика, семантика

Об авторах:

БУРАНОВА Барно Менглибаевна — доцент кафедры “Узбекский язык и литература” Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, кандидат технических наук., buranovabarno17180915@gmail.ru

АТАБАЕВА Ходжарбиви Яраш кызы — докторантка первого курса Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, atabayevahajarbibi@gmail.com